



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



## MILLIY LIBOSLAR - MILLAT G'URURI.

**Jo'ramuratova Raxima Akbar qizi**

*Jizzax davlat pedagogika Universiteti*

*Pedagogika-psixologiya va Inklyuziv ta'lim fakulteti*

*Surdopedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi*

*Tel :(+998) 95 059 08 10*

**Annotatsiya :** *Ushbu maqolada milliy liboslar- millat g'ururi ekanligi har bir o'zbek, balki barcha ayollarga milliy liboslar yarashishi haqida va nima uchun milliy liboslar kiyilishi qanday paydo bo'lgani haqida qisqacha ma'lumot.*

**Kalit so'zlar :** *milliy liboslar, millat g'ururi, urf - odat, o'zbek qizi, millat ko'zgusi, millat obro'si, go'zallik timsoli*

**Annotation:** *This article briefly explains why national costumes are a source of national pride, why every Uzbek, and indeed all women, should wear them, and how the practice of wearing national costumes originated.*

**Keywords:** *national costumes, national pride, customs, Uzbek girl, mirror of the nation, national prestige, symbol of beauty*

**Kirish :** Milliy liboslar millat g'ururi va identifikatsiyasining muhim belgisi hisoblanadi. Ular xalqning tarixiy, madaniy va etnik an'analari bilan bog'liq bo'lib, millatning o'ziga xosligini, urf-odatlarini, qadriyatlarini va o'ziga xosligini bildiradi. . Milliy liboslar, shu bilan bir qatorda xalqning turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini va diniy yoki milliy an'analarga bo'lgan hurmatini ifodalaydi. Ular, bir tomondan, xalqning o'ziga xosligini asrab qolish, ikkinchi tomondan esa, o'zaro birligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy liboslar faqatgina kiyim-kechak sifatida emas, balki xalqning tarixi, urf-odatlarini, qadriyatlari va madaniyati bilan ham chambarchas bog'liq. Ular millatning o'ziga xosligini, qadimiy an'analari va hayot tarzini ifodalaydi. Har bir millatning liboslari o'zining tarixiy davrlarida shakllanib, bugungi kunda o'ziga xos uslubda liboslar yaratishga ilhom beradi. Milliy liboslar, milliy bayramlarda yoki muhim tadbirlarda kiyiladigan kiyimlar sifatida xalqning birligini, g'ururini faxri va kelajakka bo'lgan ishonchini namoyon etadi. Ularda ko'pincha ranglar, naqshlar, materiallar va shakllar orqali an'anaviy qadriyatlar, ma'naviyat, tabiat va millat tarixining alomatlari mujassamlashgan hisoblanadi.

Shuning uchun milliy liboslar, faqatgina kiyim-kechak sifatida emas, balki xalqning g'ururi, milliy ma'naviyatining ramzi, madaniy merosi va xalqning o'ziga xosligini ifodalaydigan muhim bir vosita hisoblanadi.

Asosiy qism : Milliy liboslar tarixan turli madaniyatlar va xalqlarning o'ziga xos tarixi, geologik sharoitlari, ijtimoiy hayoti va iqtisodiy holatlariga qarab shakllangan. Ular, asosan, xalqning kundalik hayoti, mehnat faoliyati, diniy va ijtimoiy marosimlar, hamda, iqlim va



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



tabiiy resurslarga bog'liq ravishda rivojlangan hisoblanadi. Milliy liboslar xalqning mehnat faoliyatini aks ettirgan. Misol uchun, chorvador yoki dehqon millatlar o'zining qishloq xo'jaligi yoki hayvon boqish bilan shug'ullanishiga mos tarzda kiyimlar yaratgan. Shahar aholisi esa o'zining shahar hayoti, kasblari va ijtimoiy mavqeiga mos kiyimlarni kiyganligi ma'lum.

Diniy urf-odatlar, marosimlar va qadriyatlar ham milliy liboslarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ko'plab xalqlarda diniy bayramlar, to'ylar va boshqa muhim tadbirlar uchun alohida kiyimlar yaratilgan. Har bir kiyim o'z ichiga o'ziga xos ramzlarni, diniy ma'nolarni va madaniy qadriyatlarni olganligi ma'lum qilingan.

Milliy liboslar vaqt o'tishi bilan yanada boyib, murakkablashdi. Masalan, o'zbek milliy liboslari, ya'ni "belbog", "chopon", "kurta", "salvor", "dupi" kabi kiyimlar tarixiy davrlar davomida o'zgargandir. Har bir davrning moda, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlari milliy liboslarga ta'sir ko'rsatdi, ammo xalqning o'ziga xosligini saqlashga intilishi davom etaveradi. Hozirgi kunga kelib milliy liboslarning turli fasonlarining rivojlanib borishi kuchaydi. Toshkent shahrida milliylikni keng targ'ib qilish rejalashtirilmoqda edi. Va poytaxt hokimi Shavkat Umarzoqov 21-yanvar kuni "Toshkent shahrida milliylikni keng targ'ib qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Hujjatga ko'ra, Toshkent shahridagi davlat tashkilotlari, boshqarma va muassasalarda haftaning har juma kuni "Milliy liboslar kuni" deb belgilanadi va barcha korxonalar, muassasa va tashkilotlarning jamoalarida targ'ib qilinadi. Bundan maqsad shuki milliylikimizning yo'qolib ketishini oldini olish va milliy qadriyatlarimizni saqlab qolishdan iborat.

Xulosa : Bizning Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Universitetida ham har haftaning juma kunida "milliy liboslar" namini o'tadi. Barcha fakultet hodimlari, o'qituvchilari, talabalari milliy liboslarda kelishadi. Bizning Pedagogika va Psixologiya fakulteti Surdopedagogika yo'nalishi 1-kurs talabalari tomonidan milliy liboslar kuniga bag'ishlangan talabalar sur'ati.

### Adabiyotlar :

1. Rahmatullaeva D., Xodjayeva U., Ataxanova F. Libos tarixi. –T., 2015.-B.252.
2. T., 2022. // O'tmishga nazar, 1- Maxsus son.- B 11.
3. Raupova D.D. XIX asr oxiri XX asr boshlari o'zbek milliy liboslari mintakaviy tiplari. 2018. -B.97
4. Xoliqova, R. (2024). XIX ASR VA XX ASR BOSHLARIDA O'ZBEK AYOLLARINING MILLIY LIBOSLARI TARIXIDAN.